

O'ZBEKISTONDA OILA MUNOSABATLARINING TARTIBGA SOLINISHI

Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna

Namangan Davlat Universiteti katta o'qituvchisi

To'xtasinov Barhayotjon

Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti yurisprudensiya yo'nalishi AU-2023 guruh talabasi.

Annotatsiya: Oilani qanday paydo bo'lganini va qanday rivojlanganini oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida qaralganligini qadimdan qay yo'sinda bo'lganligini korishimiz mumkin. Keyinchalik xalqaro doirada ko'rib chiqilganligini bu juda muhim masala ekanligi hech birimizga sir emas.

Kalit so'zlar: Oila, jamiyat, nokoh, aholi, ota-ona, opa-singil, aka-uka, nevara, evara, chevara, jamoa, qabila, vasiylik, homiylik, erkak, ayol, bola, oila kodeksi, oila boshlig'i, avlod, xalq.

Annotation: we can see how the family appeared and how it developed, in what way the family was from time immemorial considered as the main branch of society. It is no secret to any of us that this is a very important issue that was later considered in the international circle.

Keywords: family, society, nokoh, population, parent, sister, brother, granddaughter, evara, chevara, community, tribe, guardianship, male, female, Child, Family Code, head of family, generation, people.

Nikoh va oila qadimgi ma'naviy manbalarda, sharq faylasuflari jumlagan, Kunfutsiylik, legizm g'oyalarida, tarixchilar asarlarida, xalqning ibratli hikmatlarida e'tiborda bo'lgan masaladir

Qadim Turon qadriyati hisoblangan Avestoda o'rta asrlar xalq e'tiqodi asosi bo'lgan Qur'oni Karimda nikoh va oilaning tartibga solinishi belgilangan.

G'ar mamlakatlarida ham oilaning mustahkamligini tartibga solish qat'iy qoidalari mavjud bo'lib, bu „Patriarxat“ nazariyasi yani bunda oila ota tomonidan boshqarilgan va asta sekin oilalardagi munosabatlarni qabila boshliqlari tomonidan tartibga solingan.

Qadimgi Rim jamiyatida oila davlat yacheykasidan iborat bo'lgan hamda uy xo'jaligining boshqaruvchisi, ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qullar, va vasiylik yoki homiylikda bo'lgan shaxslarning jamoasi bo'lib hisoblangan. Yangi eramizning XI asri mashhur yuristi Gay, Rim oilasi shunday tipik xususiyatga egaki, (boshqa hech qanday xalqlar tomonidan barpo qilinganga o'xshamaydigan) Rim xalqining erishgan buyuk yutug'idir, deb ta'ritlagan edi. Rim davlatining oilasi oila boshlig'i (raterfamilias)ning chegaralangan, dastlabki davrda esa mutlaq huquqlarga, hokimiyatga (ma'nus)ga ega bo'lganligi asosida, ya'ni o'z bolalari, nevaralar, chevaralari, xotini ustidan va uydagi (xo'jalikdagi) bo'lgan shaxslarning barchasi ustidan amalga oshiruvchi hukmronligiga

tushunilgan. Bularing hammasi O'zirniki (sui) deb ta'riflab, oilaning otasi o'zini o'zimga o'zim xo'jayin deb etirof etgan.

Shunday qilib asta sekinlik bilan oila rivojlangan. Hammamizga ma'lumku oilaning rivojlanishi qadimdan mavjud bolgan davrlarlardan kuzatishimiz mumkin. Keyinchalik bu sohani xalqaro miqiyosda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994 yildan boshlab, har yili 15 may kunini Xalqaro Oila kuni sifatida nishonlashga qaror qildi. 1993 yildan buyon Venada, Qohirada, Kopengagenda va Pekinda hamda qator boshqa Xalqaro anjumanlar kun tartibiga oila masalasi ataylab kiritilishida ham ma'no bor. Har yili belgilanayotgan va amalga oshirilayotgan xayrli ishlarning barchasida oila va uning mustahkamligi muammosi umuminsoniy vazifa ekanligi e'tirof etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 16-moddasida shunday deyiladi:

"1.Balog'atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror bir cheklashsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o'tayotganda ham, nikohda bo'lgan vaqtda ham va nikoh bekor qilinayotganida ham bir xil huquqlardan foydalanadilar.

2.Nikoh, nikohdan o'tayotgan ikkala tomonning xohishi va batamom roziligi bilangina tuzilishi mumkin.

3.Oila jamiyatning tabiiy va asosiy xujayrasidir va u jamiyat, davlat tomonidan muhofaza etilish huquqiga egadir". Hozir yer yuzida 8,2 milliard kishi istiqomat qilmoqda. Ularning 43 foizi shaharda, qolgani qishloqlarda yashaydi. O'zbekiston Respublikasida 36 milliondan ortiq aholi yashasa ular 4 million 800 ming oiladan iborat. Aholining 98 foizi oilalarda, qolganlari esa yolg'izlikda yashaydilar. Har yili 350-400 ming bola tug' ilmoqda. Yiliga o'rta hisobda 170 ming yosh oila vujudga kelmoqda. Mamlakatimizda 5 milliondan ortiq reproduktiv ayollar (bola tug'ish yoshidagi ayollar) mavjud. Aholining o'rta yoshi 70. Ayollar 72 yosh, erkaklar 68 yosh.

Bugun oilaning benazir nufuzi, ulkan ijtimoiy ahamiyatga molik voqyelik ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Oila jamiyatning asosiy hujayrasi va ijtimoiy tayanchidir. Har bir oilaning bahtiyorligi va farovonligi pirovard natijada jamiyatning barqarorligi, gullab-yashnashi hamda farovonligi shartidir. Oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a'zolarini, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqolol g'oyasi asosida tarbiyalash maskani sifatida katta ahamiyatga molikdir.

Vaxolanki hozir O'zbekistonda oilaviy munosabatlarni tartibga solishning oziga yarasha tartib qoidalari mavjud bo'lib bu birinchi navbatta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 76-moddasida- "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi",-deb yozib qoyilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentini ham alohida tarif berib o'tganlar, Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zinning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman.

Vaholanki, Oila – nikohga yoki tug'ishganlikga asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirini o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi. Respublikamizda Oliy Majlis tomonidan 1998 yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining qabul qilinishi oila manfaatlarini takomillashtirish yo'lida qo'yilgan muhim bir qadam bo'ldi. Ushbu Kodeks oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda o'zaro hurmat, hamjihatlik, oila a'zolari o'z huquqlarini hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ifodalaydi. Oila Kodeksi - O'zbekiston Respublikasida oila munosabatlarini tartibga soluvchi yagona tizimga keltirilgan qonunlar majmuasidir. Huquqning alohida tarmog'i hisoblangan oila huquqining maxsus manbaidir. E'tiborlisi, Oila Kodeksi mamlakatimizda "Oila yili" deb e'lon qilingan yilda qabul qilindi. Kodeks 8 bo'lim, 30 bob 238 moddadan iborat. Amaldagi Oila Kodeksi bir qator oilaviy huquq munosabatlarni yangicha hal etgan. Chunonchi, milliy negizlarga asoslanganligi (quda-andachilik, qarindosh-urug'chilik, bobo-buvilar va nabiralar o'rtasidagi munosabatlarni yangicha talqini), umum insoniy qadryatlar aks etganligi (nikoh shartnomasi institutining kiritilishi, nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi kabi hollar.

Kodeks Respublikamiz yerli xalqning milliy hususiyatlarini to'la hisobga olgan. Oilada ota-onaga va katta yoshdigilarga nisbatan hurmat ko'rsatish, ularning duolarini olish, kichiklarga nisbatan shafqatli bo'lish, hovli joylarni supurib-sidirib, suv sepib tozalikni saqlash, idish-tovoq, uy-joylarni pokiza tutish, oila a'zolarining barchasi to'planib dasturxon atrofida shirin suhbat qurish oilaviy rejalarini belgilab olish kabilar sharqona oilaga xos ajoyib hususiyatlardir.

Sharq oilalari o'zlarining ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlariga ega bo'lib, aynan oilada demokratik negizlarga asos soladi, odamlarning talab ehtiyojlari va qadryatlari shakllanadi.

Shuning bilanbirga oila mustahkamligini tartibga soloshda bir qancha asoslar mavjud bo'lib, bu davlat siyosatining bir qancha asoslarida o'z ifodasini topadi.

Oila mustahkamligini ta'minlovchi omillar deb nomlasak xato bo'lmaydi. Bular: Iqtisodiy omillar, ijtimoiy omillar, ma'naviy omillar, tarbiyaviy omillar kabidir.

Iqtisodiy omillar oilaning ish bilan bandligi, daromadining belgilangan meyorlari bilan o'lchanadi.

Ijtimoiy omillar oilalarning kelib chiqishidagi etnik, ijtimoiy ta'minlanganlik, tabaqalar ortasidagi munosabatlarda ifodalanadi.

Ma'naviy omillar oilalarning qadriyatlarini, fikrlashdagi, g'oyalardagi o'ziga xoslik bilan belgilanadi.

Tarbiyaviy omillar alohida o'rganishni talab etuvchi soha hisoblanib, hozirgi kunning dolzarm muammosi hisoblanadi. Chunki, oilalarning mustahkamligini ta'minlovchi va jamiyat kelajagini belgilovchi mezon tarbiya ekanligini unutmasligimiz kerak. Oilaning ijtimoiy holati, ma'naviyati, iqtisodiy jihati, madaniy yuksalishi oiladagi tarbiyaning darajasi bilan tartibga solinadi.

Shuning uchun XX asr boshida ijod qilgan o'zbek adibi hamda olimi Abdurauf Fitrat tomonidan 1914-yilda yozilib, 1915-yilda Mirzo Abduvohid Munzim tomonidan nashrga tayyorlangan, 1916-yilda esa Bokuda nashr etilgan falsafiy-axloqiy turdagi Oila asarida oilani mustahkamligini ta'minlovchi asosiy omil tarbiya ekanligi bildirilgan.

Biz oilani mustahkamligini ta'minlashda, tartibga solishda tarbiyaga alohida e'tibor qaratishimiz oilani tartibga solishning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -T.: O'zbekiston nashriyoti, 2024,- b 120

2.Oral Ernazarov "Rim huquqi" "Namangan" nashriyoti • 2005"

3.Otaxo'jaev F.M. Sh.Yuldasheva Oila huquqi. -T.: TDYuI. 2017. -309 b.

4.Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. -T.: Adolat. 2000.-446 b.

5.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН–III РЕНЕСАНСИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ИЖТИМОЙ ҲИМОЯСИ PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022) - Copenhagen:2022. ISSUE 13 - 226 p. 94-99

6. Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna. Voyaga yetmaganlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 10-16-betlar

7.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL. 203-207

<http://www.bestpublication.org/>

8.Саидисаков Саидахроп Саидакромович. ЭМОТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ И КАТЕГОРИЯ ЭМОТИВНОСТИ. 7 – ТОМ 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL. <http://www.bestpublication.org/>. 198-202

9.Chuboyeva Ozodaxon “New Uzbekistan: Administrative Management Reform”
Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367.
<https://zienjournals.com>

10.Kuvonbekovna C. O. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI //PEDAGOG. –
2024. – T. 7. – №. 2. – C. 194-198.

11.„Abdurauf Fitrat. Oila“. 2023-yil 19-mayda asl nusxadan arxivlangan.
Qaraldi: 2023-yil 19-may.

12.www.Gazeta.uz

13.www.taqvim.uz